



MA'NAVYIY-MA'RIFIY ISHLAR TALABALAR MAFKURAVIY IMMUNITETI RIVOJLANTIRISH KAFOLATI

Ortikov Oybek Rustamovich

Buxoro davlat universiteti pedagogika kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada ma'naviy-ma'rifiy ishlar, tadbirlarning talaba-yoshlar ongiga ta'siri, ma'naviy-axloqiy sifatlari, mafkuraviy xususiyatlarning rivojlanishi, mafkuraviy immuniteti ozuqlanishida ma'naviy ozuqa sifatida namayon bo'lishi, tadbirlarning turlari, shakllari, metod va vositalari, ularni amalga oshirish jarayonlari haqida fikr-mulohazalar bayon qilingan.

Kalit so'zlar: Ma'naviyat, ma'rifat, tadbirlar, tarbiya, fuqarolik jamiyati, axloqiy va intellektual salohiyat, barkamol avlod, ijtimoiy-madaniy hayot.

Kirish. Bugungi kunda ma'naviy islohotlar zamirida talaba-yoshlarni tarbiyalash va kamolotga yetkazish masalasi dolzarb. Yangi O'zbekiston sharoitida huquqiy demokratik davlat, fuqarolik jamiyati qurish doirasida keng qamrovli ishlar amalga oshirilmoqda. Bu islohotlar markazida mamlakatimizda yoshlarni inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni va qadr-qimmatini oliy qadriyat hisoblanadigan insonparvar demokratik davlatni, ochiq va adolatli jamiyatni barpo etish borasida hozirgi va kelajak avlodlar oldidagi yuksak mas'uliyat[1], vatanparvarlik, milliy an'ana va qadriyatlarimizga hurmat ruhida tarbiyalash, ma'naviy yetuk va jismonan sog'lom barkamol avlodni voyaga yetkazish, ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish[3], shaxs va uning barkamol qiyofasi shakllantrish maqsadi qilingan. Shaxsni har tomonlama kamol toptirish, uning ma'naviy – ahloqiy va intellektual salohiyatini jahon andozalariga mos tarzda yuksaltirish, ayniqsa, bo'lajak oliy ma'lumotli mutaxassislarni har tomonlama barkamol insonlar sifatida shakllantirish ishlari bosqichma – bosqich amalga oshirilmoqda.

Jamiyatimizning barcha sohalarda amalga oshirilayotgan islohotlarning samaradorligi, xalq ma'naviyatini tiklash, boy tarixiy merosimizni o'rganish, madaniyat va san'at, fan, ta'lim rivoji, zamonaviy fan-texnika yutuqlari bilan qurollangan, aniq maqsadli hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida har tomonlama kamol topgan, ongli, ma'naviy-axloqiy qadriyatlar bilan qurollangan, dunyoqarashi shakllangan[2], malakali mutaxassis kadrlarni tayyorlashda ma'naviy-ma'rifiy ishlarning salmog'i ham nihoyatda muhim ahamiyatga ega.

Adabiyotlar tahlili: Ma'naviy-ma'rifiy ishlar ko'p qirrali ijtimoiy-madaniy jarayon bo'lganligi sababli, hayotning deyarli barcha sohalari bilan bog'liq. Avvalo, u insonlarning mehnat faoliyati va bo'sh vaqti bilan aloqadordir.


Yuksak ma'naviy axloqiy fazilatlariga ega insonni tarbiyalash g'oyasi azal-azaldan xalqimizning ezgu orzusi, uning ma'naviyatining uzviy bir qismi bo'lib kelgan. Yoshlarda mafkuraviy immunitetni shakllantirishda, o'zgartirishda, hidoyatga, to'g'ri yo'lga yurishlarini ta'minlash masalasi har zamonda dolzarb sanalgan.



Shunday ekan, yangilanayotgan jamiyatimizda kadrlarni tarbiyalashda milliy dasturlari, ayniqsa ta'lim-tarbiya jarayonini tubdan isloh qilish, ta'lim-tarbiya jarayonida milliy, umuminsoniy qadriyatlardan unumli foydalanishning ahamiyati tobora ortib boraveradi. Erkin fuqorolik jamiyatini ma'naviy barkamol, ezgu g'oyalarga xayrxoh, jamiyat kelajagi uchun xizmat qiladigan talaba yoshlarga bunyod eta oladi.

Talaba-yoshlar ma'naviy ehtiyojlarini qondirish, milliy an'analar asosida ta'lim va tarbiya berish, xalq farzandlarini yuksak salohiyatli, bilimli qilib tarbiyalashda, milliy mafkurani targ'ib etish, salohiyatli o'qituvchi qilib yetishtirish muhimdir.

Barkamol inson haqidagi yuksak, umuminsoniy g'oyalar Imom G'azzoliyning insonlarni axloqiy muolajasini qarab to'rt toifaga ajratgan. (1-rasm)



O'zbek xalqining milliy qadriyatlari bor ekanki, ular ma'naviyatning negizi sanaladi. Milliy qadriyatlar deganda avvalo, ota-onaga ehtirom, tozalik, harakatda baraka, o'zbek tili, diniy bag'rikenglik, so'z erkinligi, lafz (qonun, burch va kelishuvga sadoqat), yelkadoshlik, mehmondo'stlik, rozi-rizolik kabi sifatlar e'tirof etiladi. Shuningdek, bunyodkorlik g'oyalariga sodiqlik, yuksak mas'uliyat, ijtimoiy adolatparvarlik, insonparvarlik, milliy totuvlik, xalqimizning urf-odatlar va an'analari, mafkuralar xilma-xilligi va erkinligi, ijtimoiy adolat, fuqarolarning qonun oldidagi tengligi, vijdon erkinligi, adolatli mehnat kabi tamoyillar milliy qadriyatlar, ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimida shakllanadi. (2-rasmga qarang)



“Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari” g‘oyasi jamiyatda sog‘lom dunyoqarash va bunyodkorlikni umummilliy g‘oyaga aylantirishga, oila, ta‘lim tashkilotlari va mahallalarda ma‘naviy tarbiyaning uzviyligini ta‘minlashga targ‘ibot-tashviqot va tarbiya yo‘nalishidagi ishlarni ilmiy jihatdan tashkil etishga, sohadagi tadqiqot ishlari samaradorligini oshirishga, ijtimoiy-ma‘naviy muhit barqarorligini mustahkamlashga qaratilgan tizimini tashkil etish, el-yurt taqdiriga loqaydlik, mahalliychilik, urug‘-aymoqchilik, korrupsiya, oilaviy qadriyatlarga bepisandlik va yoshlar tarbiyasiga mas‘uliyatsizlik kabi illatlarga barham berish, internet, jahon axborot tarmog‘idan foydalanish madaniyatini oshirish, g‘oyaviy va axborot xurujlariga qarshi mafkuraviy immunitetini kuchaytirish, madaniyat, adabiyot, kino, teatr, musiqa va san‘atning barcha turlari, noshirlik-matbaa mahsulotlari, ommaviy axborot vositalarida ma‘naviy-axloqiy mezonlari, milliy va umuminsoniy qadriyatlarning ustuvorligiga erishish, geosiyosiy va mafkuraviy jarayonlarni muntazam o‘rganish, terrorism, ekstremizm, aqidaparastlik, odam savdosi, narkobiznes va boshqa xatarli tahdidlarga qarshi samarali g‘oyaviy kurash olib borish hamda bu borada xalqaro hamkorlik aloqalarini rivojlantirish belgilangan tamoyillarning hayotdagi ijrosini ta‘minlashga xizmat eiladi [4].



2-rasm. Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari g‘oyasining tamoyillari

Hozirgi kunda yosh avlodni dunyoda kechayotgan murakkab siyosiy, mafkuraviy kurashlardan muntazam xabardor qilish, jahonda va yon atrofimizda sodir bo‘layotgan voqea-hodisalarga nisbatan ongli munosabatni shakllantirish, ularda milliy manfaatlarimiz mohiyatini chuqur anglash va himoya qilishga qaratilgan ta‘lim-tarbiyani tashkil etish talabalarida ma‘suliyatni yuklaydi.

Ma‘naviy-ma‘rifiy tadbirlar mazmunida mafkuraviy immunitetni shakllantirish va targ‘ibot qilish ishlari prezidentimiz Sh.M.Mirziyoev ta‘kidlaganidek, “Biz uchun o‘z dolzarbligi va ahamiyatini hech qachon ahamiyatini yo‘qotmaydigan yana bir masala, bu - farzandlarimizni



mustaqil fikrli, zamonaviy bilim va kasb-hunarni egallagan mustahkam hayotiy pozitsiyaga ega, chinakkam vatanparvar insonlar sifatida tarbiyalash vazifasidir”. [8,123-b]

Yoshlar tarbiyasi, sport, intellektual salohiyatni oshirish, kitob o‘qish, mutolaa madaniyatini shakllantirish, yoshlarni ilmiy, bilimli, dunyoqarashlarini keng bo‘lishi, jamiyat taraqqiyotiga hissa qo‘shishi va boshqalar davlatimiz siyosatining asosiy masalalari sifatida qaralayotganligi sir emas. Zero, yurtboshimiz Sh. Mirziyoyev aytganlaridek; “Yoshlarning ilmiy va badiiy kitoblar, jumladan, elektron asarlarni o‘qishga bo‘lgan qiziqishini yanada oshirish, huquqiy, ekologik, tibbiy va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish madaniyatini yuksaltirish orqali ularda turli mafkuraviy tahdidlarga, xususan, diniy ekstremizm, terrorizm, “ommaviy madaniyat” va boshqa yot g‘oyalarga qarshi mustahkam immunitetni shakllantirish”[5]ma’naviy-ma’rifiy ishlarning mazmunini tashkil etadi.

Muhokama. Talaba-yoshlarni oq ko‘ngilli, bag‘rikeng, mehnatsevar, sofdil, rostgo‘y, saxiy, vijdonli, irodali, qatiyatli etib tarbiyalash ularda jamiyatning eng oldi insonlari bo‘lishini ta’minlanasa, xasislik, olg‘irlik, ochko‘zlik, g‘irromlik, pastkashilik, tuhmatchilik, xoinlik, yolg‘onchilik kishilarni beburd, axloqsiz kabi yomon sifatlar ularning hayotini izdan chiqaradi. Shunday ekan, ma’naviy-ma’rifiy va mafkuraviy targ‘ibot ishlari qanday dastur va yo‘nalish, qaysi ko‘rsatma va qo‘llanma, qanaqa reja asosida, qay saviyada, kimlar tarafidan olib borilayotgani g‘oyat muhim masala ekanligi doim yodimizda tutmog‘imiz darkor. Jadid ma’rifatparvarlaridan biri Abdulla Avloniy aytganidek, “Insonlarni yaxshilikg‘a chaqirguvchi, yomonlikdan qaytarguvchi bir ilmduur. Yaxshi xulqlarning yaxshiligini, yomon xulqlarning yomonligini dalil va misollar ila bayon qiladuragan kitobni axloq deyilur. Axloq ilmni o‘qub, bilub amal qilgan kishilar o‘zining kim ekanin, janobi Haq na uchun xalq qilganin, yer yuzida nima ish qilmak uchun yurganin bilur. Bir kishi o‘zidan xabardor bo‘lmasa, ilmni, ulamoni, yaxshi kishilarni, yaxshi narsalarni, yaxshi ishlarning qadrini, qimmatini bilmas. O‘z aybini bilub, iqrur qilub tuzatmakg‘a sa’y va ko‘shish qilgan kishi chin bahodir va pahlavon kishidur. Rasuli akram nabiyyi muhtaram afandimiz: «Mezon tarozusiga qo‘yiladuragan amallarning ichida yaxshi xulqdan og‘irroqi yo‘qdur. Mo‘min banda yaxshi xulqi sababli kechasi uxlamasdan, kunduzlari ro‘za tutub ibodat qilgan kishilar darajasiga yetar” deb ta’riflagan [9,5-b]. Bugungi kunda mafkuraviy immuniteti to‘liq shakllangan yoshlarni tarbiyalash masaalasi har kungidanda muhim bir davrda ta’lim tizimida amalga oshiriladigan sa’y-harakatlarning mazmuni quyidagi modulda kengroq yoritilgan.

Mafkuraviy immunitet o‘z-o‘zini anglash, milliy g‘urur va iftixorning namoyon bo‘lish xususiyatlarida namoyon bo‘ladi. Mafkuraning bosh g‘oyasi - Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot qurish va uni amalga oshirishning asosiy g‘oyalari:

- a) yurt tinchligi,
- b) Vatan ravnaqi,
- c) xalq farovonligi,
- d) komil inson,
- e) ijtimoiy hamkorlik,
- f) millatlararo totuvlik,
- g) diniy bag‘rikenglikda aks etadi.



“Mafkuraviy immunitet - ma’naviy barkamol, irodasi baquvvat, iymoni butun shaxsni tarbiyalashda, har qanday reaksiya, buzg‘unchi xarakterdagi g‘oyaviy tashabbuslarga bardosh bera oladigan yoshlarni tarbiyalashda qo‘l keladi” [13,160-b].

Ma’lumki, har qanday kasallikning oldini olish uchun, avvalo, kishi organizmida unga qarshi immunitet hosil qilinadi. Biz ham farzandlarimiz yuragida ona Vatanga, boy tariximizga, ota-bobolarimizning muqaddas diniga sog‘lom munosabatni qaror toptirishimiz, ta’bir joiz bo‘lsa, ularning mafkuraviy immunitetini kuchaytirishimiz zarur.

Demak, mafkuraviy immunitet - davlat va millatning ma’naviy birligi, ma’naviy sog‘lomligini himoya qiluvchi g‘oyaviy qalqon vazifasini bajaradi. Aslida organizmni infeksiya agentlar va boshqa yot moddalardan himoya qilish omillari tabiati bo‘yicha uchga bo‘linadi:


1. Filogenetik immunitet - anatomik va fiziologik belgisiga ko‘ra nasldan naslga o‘tadigan himoyaviy rezistentligi. Bunda organizm yuqumli kasalliklarga chidamli bo‘ladi.

2. Tug‘ma immunitet (turga xos, tabiiy), nasbatan chidamli, nasldan naslga o‘tadigan xarakterga ega.

3. Orttirilgan immunitet - hayot davomida orttirilgan immunitet. U o‘z-o‘zidan namoyon bo‘lmaydi. Uning namoyon bo‘lishi uchun ichki yoki tashqi g‘oyaviy ta‘sir bo‘lishi kerak [11,95-b]

Natijalar. Mafkura turiga ko‘ra bunyodkor va vayronkor mafkuralarga bo‘linadi. Yuksak maqsadlarni ko‘zlagan g‘oyalarga asoslangan, ozodlik, erkinlik, mustaqillik, tinchlik, hamkorlik g‘oyalari asosida shakllangan, ijtimoiy iqtisodiy taraqqiyotga turtki bo‘la oladigan, ma’naviyatni yuksaltirib, insonlarni ulug‘vor ishlarga chorlaydigan ezgu maqsadlarga xizmat qiladigan qarashlarga bunyodkor mafkura deb aytiladi.

Yakka hukmronlik, mustabidlik, tajovuzkor, bosqinchilik, ekstremistik, aqidaparastlik g‘oyalari asosida shakllangan, millat va xalqlarni asoratga soladigan, ozodlik, erkinlik, mustaqillik, tinchlik tushunchalarga qarshi bo‘lgan mafkuralarga vayronkor mafkuralar deyiladi. Insoniyat tarixida turli-tuman mafkuralar bo‘lgan. Turli xalqlar va ijtimoiy kuchlarning g‘oyaviy rahnamolari, mutafakkir va arboblari o‘zlarining manfaat va maqsadlaridan kelib chiqib mafkuraviy ta’limot va dasturlar ishlab chiqqanlar. Yuksak maqsadlar, bunyodkor g‘oyalarga asoslangan mafkura ijtimoiy iqtisodiy taraqqiyotga turtki bo‘ladi, ma’naviyatni yuksaltiradi, insonlarni ulug‘vor ishlarga safarbar etadi.



O'tgan davr mobaynida eski tuzumdan og'ir meros bo'lib qolgan ana shunday illatlarga, el-yurtimizga nisbatan kamsitish va milliy manfaatlarimizni mensimaslik holatlariga barham berish,



ko'hna qadriyatlarimiz, dinu diyonatimizni tiklash, hayotimizda tarixiy adolatni qaror toptirish, yangi jamiyat qurish yo'lida xalqimizning ma'naviy yuksalishini o'z oldimizga qo'ygan olijanob maqsadlarga yetishda hal qiluvchi mezon deb qarash va shu asosda ish olib borish biz uchun doimo ustuvor vazifa bo'lib kelganini va bugun ham e'tiborimiz markazida turganini ta'kidlash lozim. Amir Temurning "Temur tuzuklarida" qayt etilishicha; "..., garchi ishning qanday yakunlanishi taqdir pardasi ortida yashirin bo'lsa ham, aqli raso va hushyor kishilardan kengash-u tadbir istab, fikrlarini bilmoq lozimdir" [10, 20-b].

Mafkuraviy immunitet so'zini izohlash maqsadida, Vatan tuyg'u degan tushunchani izohlasak shu atamaning mazmunida mafkuraviy immunitet bevosita namoyon bo'ladi. Vatanga muhabbat hissi odamning qalbida tabiiy ravishda tug'iladi. Ya'ni, inson o'zligini anglagan sari, nasl-nasabini bilgani sari yuragida Vatanga muhabbat tuyg'usi ildiz otib, yuksala boradi. Bu ildiz qancha chuqur bo'lsa, tug'ilib o'sgan yurtga muhabbat ham shu qadar cheksiz bo'ladi. Vatan – biz tug'ilgan kindik qoni to'kilgan joy. Vatan- ota-onamiz, qarindoshlarimiz va do'stlarimiz bilan birga yashayotgan zamin. Bobolarimizning izlari qolgan yer. Ajdodlarimiz yurti, yurakdagi javohirdir.

Vatan – jonajon shahringiz va qishlog'ingizdir. Insonning qalbi, orzu-umidlari, quvonchlari va kelajagi Vatani bilan chambarchas bog'liqdir. Muqaddas "Vatan" so'zi mo'tabar "ona" so'zi bilan yonma-yon turadi. Chunki, Vatan ham ona kabi yagonadir. "Vatan" arabcha so'z bo'lib, ona yurt degan ma'noni anglatadi. Biz kinofilmlarda turli sabablarga ko'ra uzoq muddat chet ellarda bo'lib, o'z Vatanga qaytgan kishilarining samolyotdan yoki poyezddan tushgach tiz cho'kib ona vatanlarining tuprog'ini o'pganlarini va ko'zlariga surtganlarini ko'rganmiz. Bu manzarada ularning Vatanga bo'lgan muhabbatlari, Vatanning sajdagohdek, muqaddas ekanligining yorqin namunasi ko'ramiz. Vatanga muhabbat onaning vujudida, allasidan, bolalikdan berilgan ta'lim va tarbiyada vujudga keladi va taraqqiy etadi. Shu ta'lim va tarbiya jarayonida fikr, g'oya, mafkura vujudga keladi va shaklladi. Vatanga muhabbatni vujudga kelishida va rivojida mafkuraviy immunitetni o'rni va roli beqiyosdir.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, mafkuraviy immunitet o'zbek xalqining diniy bag'rikenglig, e'tiqodi, vatanga muhabbati, tolerantligi, baynalminalligi, hayotga bo'lgan muhabbati, yurt so'g'inchi, vatanga sodiqligida namoyo bo'ladi. Talabalarda mafkuraviy immunitetini ozuqlantirishda, xavf-xatarlar, tahdidlar, ma'naviyatni izdan chiqarishga qaratilgan har qanday salbiy ta'sirlarga qarshi kurasha oladigan mafkuraviy immuniteti mustahkam kuchli shaxslarni shakllantirishni taqozo etadi.

Bu borada joylarda, ayniqsa ta'lim muassasalarida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni yanada takomillashtirish orqali yuksak ma'naviy-axloqiy sifatlar, jumladan, mafkuraviy immunitet tuyg'usini shakllantirish yo'lidagi barcha imkoniyatlardan samarali, unumli foydalanish maqsadga muvofiqdir. Talabalarda barqaror ideallarni rivojlantirishda xalqning o'tmishi, qadriyat va an'analari, ajdomlarning ilmiy merosi, zamonlar orash shakllanib kelgan mafkuraviy qarashlar, g'oyalar va fikrlarga sodiqlik kelgusi avlodlarning mukammal intellektual salohiyatli yoshlar bo'lishlarida muhim ahamiyat kasb etadi.



Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. O'zbekiston Respublikasi Kontitutsiyasi.-T.: O'zbekiston. 2023 yil
2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni -T.: "O'zbekiston", 2020 yil 23 sentabr.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4307-sonli „Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" qarori. 03.05.2019 yil
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-5040-sonli "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" qarori, 26.03.2021 yil
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5106 sonli "Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O'zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo'llab-quvvatlash to'g'risida"gi Farmoni 5.07.2017 yil
6. Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. - T.: "O'zbekiston", 2017 y., - 592 b
7. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash - yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. - Toshkent: O'zbekiston, 2017.
8. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliy janob xalqimiz bilan birga quramiz T.: O'zbekiston, 2017. 488 b.
9. Avloniy, Abdulla. Turkiy guliston yoxud axloq (Matn) / A. Avloniy/ - Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2018. - 96 b.
10. Amir Temur. Temur tuzuklari. T.: Yoshlar nashriyot uyi, 2018. – 184 b.
11. Amonov M. Talabalarni ijtimoiy-pedagogik faoliyatga tayyorlash jarayoni pedagogik muammo sifatida //центр научных публикаций (buxdu. uz). – 2023. – Т. 36. – №. 36.
12. Ergashev I. va boshq. Milliy istiqloq g'oyasi: O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim bakalavriat bosqichi uchun darslik. -T.: Akademiya, 2005.
13. Quronov M, Qodirov A, Akramova Sh.-T.: "Ma'naviyat", 2018.-112 b
14. Falsafa: qomusiy lug'at. -T.: "Sharq" 2004y.
15. Олимов Ш. Ш. Духовно-нравственные факторы узбекской этнопедагогике //ББК 74.48 P 76. – С. 85.
16. Ortiqov O. R. Talabalar ma'naviy axloqiy fazilatlarini shakllantirishda "Qobusnoma" asaridan foydalanish //Conferencea. – 2023. – С. 1-5.
17. Ortiqov O. R. Globallashuv jarayonida bo'lajak o'qituvchilarda mafkuraviy immunitetni rivojlantirish omillari //Scientific progress. – 2021. – Т. 1. – №. 5. – С. 160-165.
18. Ortiqov O. R. Ma'naviy-ma'rifiy ishlar jarayonida mafkuraviy immunitetni rivojlantirish texnologiyalari (oliy ta'lim mussasalari misolida) //Экономика и социум. – 2022. – №. 3-2 (94). – С. 1130-1135.
19. Ortiqov O. R. Imom Abu Homid G'azzoliyning ma'naviy-axloqiy qarashlari //Экономика и социум. – 2023. – №. 3-2 (106). – С. 231-234.